

Loyiha

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

"NOTARIAT SOHASI"
bo'yicha qisqa muddatli o'quv kursi
O'QUV DASTURI
(*malaka oshirish*)

Toshkent – 2025

MAVZULAR REJASI

T/r	Modul va mavzular nomi	O'quv mashg'ulot turlari bo'yicha soatlar			
		Ma'ruza	Seminar-trening	Amaliy mashg`ulot	Jami
1.	Notariat faoliyatining tashkiliy asoslari	2	-	-	2
2.	Notarius lavozimini ta'sis etish va tugatish, uning faoliyatini tashkil etish tartibi	-	-	2	2
3.	Notariusning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi	2	-	-	2
4.	Notariuslar faoliyatining moliyaviy va ijtimoiy ta'minoti	-	2	-	2
5.	Notarial palata, notarius faoliyati ustidan nazorat va monitoring qilish. Adliya organlarining notariat sohasidagi vakolatlari	-	2	-	2
6.	Notarial harakatlar	-	-	2	2
7.	Notarial harakatlarni amalga oshirish qoidalari		2	-	2
8.	Bitimlarni tasdiqlash	-	-	2	2
9.	Meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'rish, merosga bo'lgan huquq to'grisida guvohnomalar berish	2	2	-	4
10.	Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mult huquqi to'grisida guvohnomalar berish. Mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlab qo'yish va taqiqni bekor qilish	-	2	2	4
11.	Hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'griligin, imzoning haqiqiyligini va tarjimaning to'griligin shahodatlash	2	-	2	4
12.	Faktlarni tasdiqlash	-	2	-	2
13.	Jismoniy va yuridik shaxslarning arizalari va (yoki) boshqa hujjatlarini topshirish. Pul summalari va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib olish	2	-	-	2
14.	Ijro xatlari yozish	-	-	2	2
15.	Vekselni protest qilish. Chekni to'lovga taqdim etish va chekning to'lannaganligini tasdiqlash	-	-	1	1
16.	Hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib olish va ularni qaytarib berish	-	-	1	1
17.	Fuqarolik ishlari bo'yicha xalqaro huquqiy yordam va huquqiy munosabatlarni amalga oshirish tartibi	-	2	2	4
	Yakuniy sinov imtihoni	-	-	2	2
	JAMI	10	14	18	42

O'QUV KURSINING MAZMUNI

1-mavzu. Notariat faoliyatining tashkiliy asoslari

O'zbekiston Respublikasida notariat. O'zbekiston Respublikasida notarius. Notarius yordamchisi. Notarius stajyori. Notarius qasamyodi. Malaka komissiyalari. Notariusning mustaqilligi va betarafligi. Notarial harakatlarning maxfiyligi. Notarius faoliyatidagi cheklovlar. Davlat notarial idorasi. Xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius. Notarial idoraning binosi. Notarial ish yuritish va hisobdorlik. Notarial harakatlar amalga oshiriladigan til. Notariusning muhri, shtamplari, ish qog'ozlari.

2-mavzu. Notarius lavozimini ta'sis etish va tugatish, uning faoliyatini tashkil etish tartibi

Davlat notarial idoralarining tarmog'i va shtatlari. Notarius lavozimini ta'sis etish va tugatish tartibi. Notarius maqomiga ega bo'lish. Notariusni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish. Litsenziyaning amal qilishini tugatish. Litsenziyani bekor qilish. Notariusning faoliyat ko'rsatish hududi (notarial okrug)

3-mavzu. Notariusning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi

Notariusning huquqlari. Notariusning majburiyatları. Notariusning javobgarligi. Xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius faoliyatini sug'urta qilish.

4-mavzu. Notariuslar faoliyatining moliyaviy va ijtimoiy ta'minoti

Notarial harakatlar va notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan boshqa harakatlar uchun haq to'lash. Notarial idora xodimlarining ijtimoiy ta'minoti. Notarial idoralarni moliyalashtirish. Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi. Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining asosiy qoidalari. Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ma'lumotlar kiritish. Elektron murojaat.

5-mavzu. Notarial palata, notarius faoliyati ustidan nazorat va monitoring qilish. Adliya organlarining notariat sohasidagi vakolatlari

Notarial palataning maqomi. Notarial palataning asosiy vazifalari. Notarial palataning organlari va mansabdar shaxslari. Notarial palata huzuridagi fondlar. Notariat to'g'risidagi qonunchilikka notariuslar tomonidan riosa etilishi ustidan nazorat va monitoring qilish. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining notariat sohasidagi vakolatlari. Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining, adliya boshqarmalarining notariat sohasidagi vakolatlari.

6-mavzu. Notarial harakatlar

Notariuslar amalga oshiradigan notarial harakatlar. Notarial tasdiqlangan hujjatlarga tenglashtiriladigan vasiyatnomalar, ishonchnomalar va arizalar. Mansabdar shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalarni va ishonchnomalarni notarial idoraga berish. Konsullar tomonidan amalga oshiriladigan notarial harakatlar. Notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi.

7-mavzu. Notarial harakatlarni amalga oshirish qoidalari

Notarial harakatlarni amalga oshirish joyi. Notarial harakatni amalga oshirish va to'xtatib turish muddatlari. Notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan kishining shaxsini aniqlash. Bitimlarda ishtirok etayotgan fuqarolarning muomala layoqatini va yuridik shaxslarning huquq layoqatini tekshirish. Notarial tasdiqlanadigan bitimlar, shuningdek arizalar va boshqa hujjatlarni imzolash tartibi. Notarial harakatlarni amalga oshirish uchun taqdim etiladigan hujjatlarga qo'yiladigan talablar. Tasdiqlovchi yozuvlarni yozish va guvohnomalar berish. Notarial harakatlarni amalga oshirish huquqini cheklashlar. Notarial harakatni amalga oshirishni rad etish. Notarial harakat ustidan, notarial harakatni kechiktirish yoki uni amalga oshirishni rad etish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish. Notarial

harakatlarni ro'yxatga olish. Notarial harakatlarni, notarial guvohnomalarni, tasdiqlovchi yozuvlarni ro'yxatga olish reestrlarining shakllari. Notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini berish.

8-mavzu. Bitimlarni tasdiqlash

Notarial tartibda tasdiqlanadigan bitimlar. Ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish va garovga qo'yish to'g'risidagi bitimlarni tasdiqlash. Vasiyatnomalarni tasdiqlash. Vasiyatnomalarni o'zgartirish va bekor qilish tartibi. Ishonchnomalarni tasdiqlash. Bitim mazmuni bayon etilgan hujjat nusxalarining soni.

9-mavzu. Meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'rish, merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomalar berish

Merosxo'rlarni meros ochilganligi haqida xabardor qilish. Merosni qabul qilish yoki undan voz kechish haqidagi arizalarni qabul qilish. Meros qoldiruvchining kreditorlaridan da'volarni qabul qilish. Meros mol-mulkni qo'riqlash. Meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'rish to'g'risida topshiriq berish. Meros mol-mulkni ro'yxatga olish va uni saqlash uchun topshirish. Meros mol-mulkni saqlaganlik uchun taqdirlash. Meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlarni to'xtatish. Meros mol-mulk hisobidan xarajatlarni to'lash. Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomalar berish joyi va muddatlari. Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish tartibi. Qonun bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berishning shartlari. Vasiyatnama bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish shartlari. Mediator vazifasini bajarish.

10-mavzu. Er-xotinning umumiyligi mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar berish. Mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlab qo'yish va taqiqni bekor qilish

Er-xotinning umumiyligi mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar berish. Marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) arizasiga ko'ra umumiyligi mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risida guvohnoma berish. Mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlab qo'yish va taqiqni bekor qilish.

11-mavzu. Hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riliгини, imzoning haqiqiyligini va tarjimaning to'g'riliгини shahodatlash

Hujjatlar ko'chirma nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riliгини shahodatlash. Hujjat nusxasidan ko'chirilgan nusxaning to'g'riliгини shahodatlash. Hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlash. Tarjimaning to'g'riliгини shahodatlash.

12-mavzu. Faktlarni tasdiqlash

Fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlash. Fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlash. Yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlash. Dalillarni ta'minlash. Fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlash. Hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlash. Mualliflik va turdosh huquq ob'ekti taqdim etilgan vaqtini tasdiqlash.

Elektron hujjatning qog'oz shaklidagi hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini tasdiqlash.

13-mavzu. Jismoniy va yuridik shaxslarning arizalari va (yoki) boshqa hujjatlarini topshirish. Pul summalari va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib olish

Arizalar va (yoki) boshqa hujjatlarni topshirish. Pul summalari va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilish. Pul summalari va qimmatli qog'ozlarning ularni depozitga topshirgan

shaxsga qaytarilishi.

14-mavzu. Ijro xatlari yozish

Qarzdordan pul summalarini undirish yoki mol-mulkni talab qilib olish. Qarzni undirish so'zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro'yxati. Ijro xatlarini yozish shartlari. Ijro xatining mazmuni. Ijro xatini taqdim etish muddatlari va ijro xati bo'yicha undirib olish tartibi.

15-mavzu. Vekselni protest qilish. Chekni to'lovga taqdim etish va chekning to'lanmaganligini tasdiqlash

Vekselni protest qilish. Chekni to'lovga taqdim etish va chekning to'lanmaganligini tasdiqlash.

16-mavzu. Hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib olish va ularni qaytarib berish

Hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib olish. Saqlash uchun qabul qilingan hujjatlarni qaytarish.

17-mavzu. Fuqarolik ishlari bo'yicha xalqaro huquqiy yordam va huquqiy munosabatlarni amalga oshirish tartibi

Chet el huquqi normalarining qo'llanilishi. Xalqaro shartnomalar. Notarius tomonidan chet el huquqi normalarining qo'llanilishi. Meros mol-mulkni qo'riqlash va merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish. Chet elda amal qilishga mo'ljallangan ishonchnomalar. Notariusning chet elda tuzilgan hujjatlarni qabul qilishi. Notariusning boshqa davlatlar adliya organlari bilan o'zaro munosabatlari. Xalqaro shartnoma.

Manbalar

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-yanvardagi "Notariat tizimi tubdan isloh qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (yangi tahriri).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 14-sentabrdagi "Notariatning faol modeli doirasida notariuslar tomonidan "yagona darcha" tamoyili bo'yicha bitimlarni tasdiqlashda davlat organlari va tashkilotlari bilan xamkorlik qilishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 733-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4270-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 18-yanvardagi "Notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish so'zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 26-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-martdag'i "Avtomototransport vositalarini sotib olish, ulardan foydalanish va ularni boshqa shaxsga berishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 38-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-martdag'i "Nodavlat notarial faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 156-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-apreldagi "Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 199-son qarori.

